

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA QO'SHIMCHA TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH

Amanova Dilorom Faxritdin qizi

*Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institut 1-kurs doktoranti*

Tel :+998883409088

E-mail: amanovadilorom90@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni bilan bog'liq holda qo'shimcha ta'limning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Hozirgi vaqtda raqamli texnologiyalar ijtimoiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalariga kirib bormoqda. Shu sababli qo'shimcha ta'lim tizimi oldiga moslashuvchan raqamli ta'lim muhitini yaratish bilan bog'liq yangi vazifalar qo'yilmoqda. Maqolada qo'shimcha ta'limning hozirgi davrdagi rivojlanishi hamda kelajak istiqbollari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, bolalar va kattalar uchun yangi ta'lim modellari hamda dasturlarini joriy etish maqsadlari va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *qo'shimcha ta'lim, axborot texnologiyalari, informatsiyalashtirish, iqtisodiyotning raqamlashtirilishi, ta'limning raqamli transformatsiyasi, raqamli texnologiyalar.*

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim inson salohiyatini saqlash va rivojlantirishning asosiy mexanizmi bo'lib, u ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishni ta'minlaydi, madaniyat davomiyligini saqlaydi, mehnat unumdorligini oshiradi hamda ilmiy-texnik taraqqiyotga yordam beradi. Ta'lim ijtimoiy hodisa va jarayon, ijtimoiy tizim hamda ijtimoiy institut sifatida jamiyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu sababli jamiyatda yuz berayotgan deyarli barcha o'zgarishlar ta'lim tizimiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon, ayniqsa, raqamli texnologiyalarni joriy etish va keng tarqalishi bilan bog'liq holda jamiyatning iqtisodiy hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan bevosita aloqador.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

XXI asrda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Zamonaviy jamiyat sharoitida inson kapitalini rivojlantirish, innovatsion fikrlashni shakllantirish va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan qo'shimcha ta'lim xizmatlari ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha qator strategik hujjatlar qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 637-sonli qonunining 14-moddasiga ko'ra, qo'shimcha ta'lim — bu insonning intellektual, ma'naviy-axloqiy, jismoniy va (yoki) kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladigan ta'lim turi bo'lib, u ta'lim darajasini oshirish bilan bog'liq bo'lmaydi. Mazkur qonunning 14-moddasida bolalar va kattalar uchun qo'shimcha ta'limning asosiy maqsadi quyidagicha belgilangan:

-Bolalar uchun qo'shimcha ta'lim uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirish, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirish maqsadida amalga oshirish.

-Katta yoshdagilar uchun qo'shimcha ta'lim ularning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirish, qo'shimcha bilim va ko'nikmalarni egallashiga ko'maklashish uchun tashkil etish.

Qo'shimcha ta'lim tizimi aholi uchun jozibador va talabgori bo'lishi zarur. Qo'shimcha ta'limning asosiy vazifasi — insonlarning doimiy ravishda o'zgarib borayotgan ta'limiy hamda ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini qondirishdir. Bu tizim insonning qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda shaxsiy rivojlanishini takomillashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarorida maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi belgilab berilgan bo'lib, unda ta'lim xizmatlari turlarini kengaytirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim vazifa sifatida ko'rsatib o'tilgan. . Ushbu konsepsiyada qo'shimcha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash zarurligi ta'kidlangan. Shuningdek, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmonida ta'lim tizimini raqamlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish zarurligi ta'kidlangan. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha ta'lim xizmatlari orqali bolalarning ijodiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish, ta'lim tizimi tajribalarini solishtirish kuzatish va umumlashtirish usullari ilmiy usullardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'lim tizimini rivojlantirishga oid ilmiy qarashlar hamda O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlari tashkil etadi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalarni qo'shimcha ta'lim tizimiga integratsiya qilish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha ta'lim xizmatlari sport sog'lomlashtirish, badiiy estetik va fanlar bo'yicha to'garaklar, yo'nalishlarda tashkil etilishi mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-241-son qarorida ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish va nodavlat ta'lim xizmatlarini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

MUHOKAMA

Raqamli iqtisodiyot sharoitida qo'shimcha ta'lim xizmatlari ta'lim tizimini rivojlantirishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ularning asosiy afzalliklari ta'lim jarayonining moslashuvchanligi, shaxsiy rivojlanishga yo'naltirilganligi va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatidan iborat. Maktabgacha ta'lim tizimida qo'shimcha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish orqali bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini erta aniqlash hamda ularni qo'llab-quvvatlash mumkin. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-son Farmoni maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish va uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratilgan muhim hujjatlardan biri hisoblanadi. Mazkur hujjatlarda ta'lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ta'lim xizmatlari sifatini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida qo'shimcha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim omillaridan biridir. Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha ta'lim xizmatlarini kengaytirish, raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish, bolalarning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Kelajakda qo'shimcha ta'lim tizimini rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish hamda raqamli ta'lim muhitini yaratish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637 -sonli "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-son Farmoni.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori.

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-241-son qarori.